

**FUQAROLARNING VOYAGA YETMAGAN SHAXSLAR BORASIDAGI  
MAJBURIYATLARNI BAJARMASLIK HUQUQBUZARLIKLARI UCHUN  
MA'MURIY JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH**

**Muzaffarova Maftuna Yusuf qizi**

*Kapitan Yuridik fanlar*

*Jizzax viloyati Sharof Rashidov tumani IIB JXX HPB VYMB inspektor  
psixolog*

**Annotatsiya:** *Jamiyat hayotining turli sohalarida inson omili ustun hisoblanadi, shuningdek unda voyaga yetmaganlarning ta'lim olishi, kamolga yetishi, ularning haq-huquqlari himoya qilinishi, fuqarolar tomonidan voyaga yetmaganlar borasidagi majburiyatlarini lozim darajada bajarilishi ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqot ishi doirasida birinchi navbatda har bir voyaga yetmagan bilan shug'ullanishi lozim bo'lgan fuqaro ya'ni ota-onalar va ularning o'rnnini bosuvchi shaxslar, vasiylik va homiylik organlari, ta'lim muassasasi rahbarlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mansabdar shaxslari tomonidan voyaga yetmaganlar bilan bog'liq majburiyatlarini bajarmaganlik huquqbuzarligi uchun O'zbekiston Respublikasi ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi hamda xalqaro davlatlar tajribalari asosida taklif va tavsiyalar aynan qaysi normalar bilan ularning javobgarlik masalalari takomillashtirilishi ko'rsatilib o'tiladi.*

**Kalit so'zlar:** *ota-onan qaramog'idan mahrum bo'lgan voyaga yetmaganlar, vasiylik va homiylik organi, ma'muriy javobgarlikni takomillashtirish.*

Muhtaram Prezidentimiz yoshlar bilan uchrashuvi doirasida: "Qanchalik qiyin bo'lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo'yicha o'zimizga xos va ta'sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak. Jondan aziz farzandlarimizni buzg'unchi va zararli g'oyalar, jinoyatchilik, giyohvadlik, loqaydlik, ma'naviy qashshoqlik kayfiyatidan asrashimiz zarur. Bunda salbiy holatlarni bartaraf etishda barchamiz, avvalo, siz, aziz yoshlar faol bo'lishingiz kerak. Xalqimizning ma'naviy qudrati va boqiy an'analarini asrab-avaylash va butun dunyoga tarannum etishga sizlar albatta qodirsiz"<sup>5</sup>-deya ta'kidlagan edi.

Davlatimiz rahbarining fiklaridan ham ma'lumki, voyaga yetmaganlar bilan bog'liq har bir holat uchun barchamiz birdek mas'ulmiz. Lekin ba'zi qo'shtirnoq ichidagi mas'ullar o'z vazifalarini vijdonan bajarmasdan kelmoqda. Misol uchun O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks

<sup>5</sup> Shavkat Mirziyoyev: 2020-yil 25-dekabrdagi "Yoshlar kelajagi bilan bog'liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega" nutqi

47<sup>2</sup>-modda Ota·ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni joylashtirishda qonunchilik talablarini buzish

“Ota·ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni oilaga tarbiyaga (patronat), farzandlikka berishda, ularga vasiylik (homiylik) belgilashda yoxud ularni yetim bolalar yoki ota·ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar uchun tayinlangan tegishli davlat muassasasiga joylashtirishda qonunchilik talablarini buzish —

fugorolarga bazaviy hisoblash miqdorining ikki baravaridan besh baravarigacha, mansabdar shaxslarga esa — uch baravaridan yetti baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo‘ladi.”<sup>6</sup>

Ushbu norma Rossiya Federatsiyasining Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksi 5.36-modda. Voyaga yetmaganlar to'g'risidagi ma'lumotlarni oilada yoki etim yoki ota·ona qaramog‘isiz qolgan bolalar muassasalarida tarbiyalash muassasalariga berish tartibi yoki muddatlarini buzish

Ota·ona qaramog‘isiz qolgan bolalar bo‘lgan muassasa rahbari yoki Rossiya Federatsiyasining ta'sis sub'ekti ijro etuvchi organi yoki mahalliy davlat hokimiyati organi mansabdar shaxsi tomonidan ma'lumot berish tartibi yoki muddatlarini buzish . oilasiga (farzandlikka olish uchun), vasiylik (homiylik) yoki homiylik ostidagi oilaga) yoki etim yoki ota·ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni tarbiyalash muassasasiga berilishi kerak bo‘lgan voyaga etmagan, shuningdek bila turib yolg'on ma'lumot bergen. bunday voyaga etmagan bola haqida mingdan bir ming besh yuz rublgacha miqdorda ma'muriy jarima solishga sabab bo‘ladi.

. Ota·ona qaramog‘isiz qolgan bolalar bo‘lgan muassasa rahbarining yoki Rossiya Federatsiyasining ta'sis etuvchi sub'ekti ijro etuvchi organi yoki mahalliy davlat hokimiyati organining mansabdar shaxsi tomonidan voyaga yetmaganni yashashdan boshpana berishga qaratilgan harakatlar majburiyati. oilaga tarbiyalash (farzandlikka olish, homiylik) (homiylik) yoki homiylik ostidagi oilaga) yoxud etim yoki ota·ona qaramog‘isiz qolgan bolalarni tarbiyalash muassasasiga o'tkazilgan bo'lsa, -

ikki mingdan uch ming rublgacha miqdorda ma'muriy jarima solishga sabab bo‘ladi.<sup>7</sup>

Bu ikkala norma bir biriga o‘xshab ketadi. Ammo Rossiya Federatsiyasining Ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi kodeksi 5.36-moddasida bu norma ancha kengaytirilgan. Xususan, unda ijro etuvchi va ishtirok etuvchi organning belgilanishi, ular tomonidan ma'lumot berish tartibi

<sup>6</sup> <https://lex.uz/acts/-97664>

<sup>7</sup> [https://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_34661/8c909d7721021e06a0cd78ded36d20014e532670/](https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34661/8c909d7721021e06a0cd78ded36d20014e532670/)

yoki muddatlarini buzish holatlari kabi tushunchalar qonun hujjati bilan mustahkamlangan." Yuqorida ko'rsatilgan ikkala norma taqqoslanganda, O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 47<sup>2</sup>-moddasiga qo'chimcha band sifatida "ota-onan qaramog'isiz qolgan bolalarni tarbiyalash muassasasiga berilishi kerak bo'lган voyaga etmaganlar to'g'risida bila turib yolg'on ma'lumot bergen holda davlat muassasasiga joylashtirganlik uchun" javobgarlik kabi normani qo'shish maqsadga muvofiq bo'ladi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shavkat Mirziyoyev: 2020-yil 25-dekabrdagi "Yoshlar kelajagi bilan bog'liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega" nutqi
2. <https://lex.uz/acts/-97664>
3. [https://www.consultant.ru/document/cons\\_doc\\_LAW\\_34661/8c909d7721021e06a0cd78ded36d20014e532670/](https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_34661/8c909d7721021e06a0cd78ded36d20014e532670/)